



## AYOLLARNING BOSHQARUVDA GENDER TAFOVUTLARDA AYOL RAHBARLARNING USTUN JIHATLARI

Abdullayeva Ra'noxon Alisher qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,  
+998998033993

abdullayevvarano.2012@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5550440>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 21-sentabr 2021  
Ma'qullandi: 25-sentabr 2021  
Chop etildi: 30-sentabr 2021

### KALIT SO'ZLAR

Shanxay Hamkorlik  
Tashkiloti (ShHT), ShHT  
MATT, ShHT deklaratsiyasi,  
ShHT Xartiyasi, ShHT va  
BMT, ASEAN, ODKB

### ANNOTATSIYA

*Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) hozirgi kunda mavqei jihatdan yuqori darajaga erishib borayotgan xalqaro tashkilotlardan biri hisoblanadi. Tuzilganiga yigirma yil to'lganiga qaramay ushbu davr mobaynida ko'plab yaxshi natijalarga erishildi. ShHTning qisqacha tarixi va uni boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari haqida yoritilgan ushbu maqolada, ShHTning muhim maqsad va vazifalari ham keltirib o'tilgan.*

Shanxay hamkorlik tashkiloti submintaqaviy xalqaro tashkilot hisoblanib, Yevroosiyo hududining 61 % ni tashkil qiladi. Ushbu tashkilotning tarixiy ildizlari 1996, 1997 yillarda Pekin va Moskvada imzolangan "Birlashgan chegara hududida harbiy sohada ishonch choralari to'g'risida kelishuvlar" va "Chegara hududida qurolli kuchlarni o'zaro qisqartirish to'g'risida bitimlar" bazasiga borib taqaladi. Yuqoridagi kelishuvlarda aks etgan tamoyillar ShHTga a'zo davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning asosini belgilaydi. <sup>1</sup> "Shanxay beshligi" asnosida vujudga kelgan, ShHT hozirgi kunda o'z tarkibini va imkoniyatlarini kengaytirib bormoqda.

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) - doimiy hukumatlararo xalqaro tashkilot bo'lib, uning tashkil etilishi 2001 yil 15 iyunda Shanxayda (XXR) Qozog'iston Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi,

Qirg'iziston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi tomonidan e'lon qilingan. <sup>2</sup> Ushbu tashkilotning rasmiy ish tili xitoy va rus tili hisoblanadi. Rasmiy Shtab kvartirasi Pekinda joylashgan. Ikki doimiy organiga ega bo'lib, biri Pekindagi ShHT kotibiyati va ikkinchisi Toshkentdagi Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (ShHT MATT) Ijroiyo qo'mitasidir. 2004 yilning yanvar oyidan boshlab Toshkentda ShHT Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (ShHT MATT) o'zining faol ishini boshladi. Doimiy faoliyatga ega bo'lgan ushbu organ ShHTga a'zo davlatlar huquq-tartibot organlari va maxsus xizmatlarining radikal, tajovuzkor ekstremizm va ayirmachilikka, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash yo'lidagi sa'y-harakatlarini birlashtirish va amaliy hamkorligi uchun samarali vosita bo'lib qoldi.

<sup>1</sup> Elektron manbaa: ShHT rasmiy sayti  
<http://rus.sectesco.org/structure/>

<sup>2</sup> Elektron manbaa: ShHT rasmiy sayti  
[http://rus.sectesco.org/about\\_sco/20151208/16789.html](http://rus.sectesco.org/about_sco/20151208/16789.html)



2017 yilning 8-9 iyunida Ostonoda (QR) da bo'lib o'tgan Shanxay Hamkorlik Tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining tarixiy yig'ilishida Hindiston Respublikasi va Pokiston Islom Respublikasiga Tashkilotga a'zo davlat maqomi berildi.<sup>3</sup> Shuningdek, 2021 yilning 17 sentabr kuni Tojikiston Respublikasi Dushanbe shahrida bo'lib o'tgan Davlat rahbarlari kengashining yubiley majlisida Eron Islom Respublikasi ham to'loqonli a'zo sifatida e'lon qilindi.<sup>4</sup> Shu tariqa, ShHT ning doimiy a'zolari soni to'qqiztaga yetdi: Qozog'iston Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Hindiston Respublikasi, Pokiston Islom Respublikasi va Eron Islom Respublikasi hisoblanadi. Bundan tashqari, Afg'oniston, Belarus va Mongoliya ShHTning kuzatuvchi davlatlari qatoriga kiradi, hamda oltita "muloqot sherik" hamkor davlatlar qatoriga: Ozarboyjon, Armaniston, Kamboja, Nepal, Turkiya va Shri-Lanka kiradi.

SHHTning asosiy maqsad va vazifalarini o'zida mujassamlashtirgan muhim hujjatlar qatoriga 2001 yilda Shanhayda imzolangan "ShHT deklaratsiyasi" va 2002 yil Sankt-Petrburgda qabul qilingan "ShHT Xartiyasi" hisoblanadi.<sup>5</sup> Ushbu hujjatlarda ShHTning o'zaro teng huquqlarga ega mustaqil mamlakatlarning hududiy havfsizlikni ta'minlash yo'lidagi o'zaro ishonch va do'stlik rishtalariga asoslangan hamkorlik

aloqalarini samarali imkoniyatlari aks etgan.

Ishonch bilan ShHTni dolzarb ahamiyat kasb etuvchi muhim tashkilotga aylanib bo'ldi deyish mumkin, chunki Yevroosiyoni Markaziy Osiyo bilan birlashtirib turuvchi ushbu tashkilot, dunyodagi global muommolarni hamkorlikda hal etish imkoniyatini beradi. Har bir davlatda tinchlik, osoyishtalik va barqarorlik hukm surishi jinoyatchilik, terorizm, separatizm, narkobiznes kabi juda havfli jinoyatlarni oldini olishda, ShHTga a'zo davlatlarning maxsus organlarining hamkorlikdagi samarali ish faoliyati va natijalari juda muhim ahamiyat kasb etadi. ShHT Xartiyasining <sup>6</sup> 1-moddasida maqsad va vazifalarda keltirganidek, a'zo davlatlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, do'stlik hamda qo'shnichilik aloqalarini mustahkamlash, hamkorlikda terorizm, ekstrimizm, separatizmga qarshi kurashish va ularning oldini olish, noqonuniy qurol yarog' va narkotik aylanmasi bilan kurashish kabi muhim masalalar yuzasidan birlashib faoliyat yuritish samarali natijalar bermoqda. Bundan tashqari boshqa xalqaro tashkilotlarning ham ushbu tashkilot bilan hamkorlikda faoliyat olib borishi, imkoniyatlar doirasini yanada kengaytiradi.

ShHT tashkiloti boshqa xalqaro tashkilotlar bilan ham keng hamkor aloqalarni olib boradi. Jumladan, ShHT va Birlashgan Millatlar tashkiloti(BMT)ning giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (BMT UNP) tarkibiy bo'linmalari hamda Osiyo va Tinch okeani

<sup>3</sup> Elektron manbaa: <https://uza.uz/ru/posts/astaninskiy-sammit-shos-10-06-2017>

<sup>4</sup> Elektron manbaa: <https://ria.ru/20210917/iran-1750506499.html>

<sup>5</sup> Чжоу Цзюнь. Шанхайская организация сотрудничества: история создания, //Научно-

технические ведомости СПбГПУ. Гуманитарные и общественные науки.Международные отношения//3 (227) 2015

<sup>6</sup> SHHT Xartiyasi: <https://www.lex.uz/ru/docs/2054961>



mamlakatlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiya (BMT ESKATO) o'rtasida yaqin hamkorlik yo'lga qo'yilgan. 2004 yil 2 dekabrda BMT Bosh Assambleyasining 65-yalpi majlisida "Shanxay hamkorlik tashkilotiga bosh Assambleyada kuzatuvchi maqomini berish" to'g'risidagi A/RES/59/48 (kun tartibining 151-bandi) rezolyutsiyasi qabul qilindi, unga asosan ShHT Bosh Assambleyaning sessiyalarida va ishida kuzatuvchi sifatida ishtirok etish huquqiga ega bo'ldi. 2010 yil 5 aprel kuni Toshkentda ShHT Bosh kotibi va BMT bosh kotibi ShHT va BMT kotibiyatlari o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi qo'shma deklaratsiyani imzolaganlar. Shundan beri, BMT kotibiyati, Pekinda taqdim etilgan BMT tizimi muassasalari bilan axborot aloqalari muntazam ravishda qo'llab-quvvatlab kelmoqda. An'anaga ko'ra, BMT yuqori vakillari raislik qiluvchi tomon taklifiga binoan ShHTning yillik sammitlarida ishtirok etib kelmoqda.<sup>7</sup>

Shuningdek, 2005 yil 12 aprel kuni ShHT kotibiyati va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) Ijroiya qo'mitasi o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumini imzolangan. Hujjatda xavfsizlik (mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikni ta'minlash, terrorizm, ekstremizm, separatizm, giyohvand moddalar va qurollarning noqonuniy aylanishi, uyushgan va transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashish), iqtisodiyot (savdo, tovarlar, xizmatlar va moliyani ilgari surish shartlari, investitsiyalarni rag'batlantirish va himoya qilish, transport va kommunikatsiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, informatika,

turizm) va gumanitar soha (madaniyat, ta'lim, fan, sog'liqni saqlash) kabi sohalar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

2005 yil 21 aprel kuni Jakarta shahrida ShHT va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi (ASEAN) kotibiyatlari o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumini imzolangan bo'lib, hujjatda terrorizm, giyohvand moddalar va qurol-yarog' kontrabandasi, noqonuniy migratsiya kabi hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan. Iqtisodiyot va moliya, energetika, jumladan, gidroenergetika va bioyoqilg'i, sayyohlik, atrof-muhit va tabiiy resurslardan foydalanish, ijtimoiy rivojlanish masalalari ham mavjud.<sup>8</sup>

ShHT va Kollektiv havfsizlik to'g'risidagi shartnoma tashkiloti (ODKB) kotibiyatlari o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumini 2007 yil 5 oktyabrda Dushanbe shahrida imzolangan. Hujjatda ShHT va ODKB kotibiyatlari o'rtasida mintaqaviy va xalqaro xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash masalalarida teng huquqli va konstruktiv hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yish va rivojlantirish, terrorizmga qarshi kurashish, giyohvand moddalarning noqonuniy savdosiga qarshi kurashish, qurol-yarog'larning noqonuniy aylanishiga chek qo'yish, uyushgan transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashish, o'zaro manfaatli boshqa yo'nalishlar belgilab berilgan.<sup>9</sup> Ikki kotibiyat o'z talab va tajribalaridan kelib chiqqan holda, ikki tomonni qiziqtirgan masalalar yuzasidan o'zaro hamkorlikda muhokamalarni tashkil qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

<sup>7</sup> Elektron manba: ShHT rasmiy sayti <http://rus.sectesco.org/cooperation/20190715/565048.html>

<sup>8</sup> Elektron manba : ASEAN rasmiy sayti <https://asean.org/asean-and-sco-secretariats-sign-agreement-for-substantive-cooperation-jakarta/>

<sup>9</sup> Elektron manba: ODKB rasmiy sayti [https://odkb-csto.org/international\\_org/sco/](https://odkb-csto.org/international_org/sco/)



Shanxay tashkilotining Davlat rahbarlari kengashining 20 yillik yubiley majlisi 2021 yilning 17 sentabr kuni Tojikiston Respublikasi Dushanbe shahrida bo'lib o'tdi. ShHTga a'zo davlatlarning rahbarlari va kuzatuvchi davlatlarning rahbarlari ham ishtirok etishdi. Tojikiston Respublikasi prezidenti Emomali Rahmon raisligida o'tgan ushbu majlisda ko'plab dolzarb masalalar ilgari surildi. Shuningdek, tadbirda hamkor tashkilotlar ham ishtirok etdi, jumladan, Birlashgan Millatlar tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi, Kollektiv havsizlik to'g'risidagi shartnoma tashkiloti, Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo'yicha kengash hamda Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti ijroiya organlarining rahbarlari ham bevosita ishtirok etishdi.

ShHT ning 20 yillik faoliyati yuzasidan olib borilgan yakuniy hulosalar hamda kelgusida olib borilishi rejalashtirilayotgan istiqbolli vazifalar haqida fikr mulohazalarni o'z ichiga olgan ushbu majlisda ShHT ning hozirgi zamonda ro'li yanada oshib borayotganiga urg'u berildi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti Shavkat Miromonovich ham ta'kidlab o'tdilar, - "O'tgan davrda ShHT xalqaro siyosatning muhim sub'ektiga aylandi, nufuzli xalqaro tuzilmalar qatorida munosib o'rin egalladi. "Shanxay ruhi" tamoyillari asosida mintaqaviy sheriklik mustahkamlanib bormoqda. Yangi xatar va tahdidlarga qarshi kurashish borasidagi umumiy salohiyat ortib bormoqda, iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorligimiz kengaymoqda", - dedi Shavkat Mirziyoev.

SHHT doirasida do'stlik rishtalarini mustahkamlab, muhim global va mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar yuzasidan hamkorlikda faoliyat yuritish hozirgi zamon sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Mintaqadagi keskin vaziyatlarning murakkab davrida hamda pandemiyaning salbiy oqibatlarini hali hanuz o'z ta'sirini o'tkazayotgan bir vaqtda barcha mamalakatlar birlashib, hamkorlikda taxdid va havf xatarlarga munosib javob qaytara olishi kerak. Buning uchun teng huquqli davlatlarning o'zaro aloqada bo'lishi muhimdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Elektron manbaa: ShHT rasmiy sayti <http://rus.sectsco.org/structure/>
2. Elektron manbaa: ShHT rasmiy sayti [http://rus.sectsco.org/about\\_sco/20151208/16789.html](http://rus.sectsco.org/about_sco/20151208/16789.html)
3. Elektron manbaa: <https://uza.uz/ru/posts/astaninskiy-sammit-shos-10-06-2017>
4. Elektron manbaa: <https://ria.ru/20210917/iran-1750506499.html>
5. Чжоу Цзюнь. Шанхайская организация сотрудничества: история создания, //Научно-технические ведомости СПбГПУ. Гуманитарные и общественные науки. Международные отношения// 3 (227) 2015
6. SHHT Xartiyasi: <https://www.lex.uz/ru/docs/2054961>
7. Elektron manbaa: ShHT rasmiy sayti <http://rus.sectsco.org/cooperation/20190715/565048.html>
8. Elektron manba : ASEAN rasmiy sayti <https://asean.org/asean-and-sco-secretariats-sign-agreement-for-substantive-cooperation-jakarta/>
9. Elektron manba: ODKB rasmiy sayti [https://odkb-csto.org/international\\_org/sco/](https://odkb-csto.org/international_org/sco/)